

## KIRIL VA LOTIN YOZUV TIZIMLARI O'RTASIDAGI GRAFEMIK INTERFERENSIYA: O'ZBEK TILIDA QO'SHIB YOZISH HODISASINING LINGVISTIK ASOSLARI

Anvarjonova Sa'diya Alisher qizi

Andijon davlat universiteti Filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Hafiza Zakirova**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o'zbek tilida kirill va lotin yozuv tizimlari o'rtasida yuzaga kelayotgan grafemik interferensiya hodisasi tahlil qilinadi. Xususan, so'zlarning qo'shib yoki ajratib yozilishidagi nomutanosibliklar lingvistik nuqtayi nazardan asoslanadi. Tadqiqotda A. Hojiyevning so'z yasash va qo'shma so'zlar haqidagi ilmiy qarashlariga tayangan holda, ortografik me'yorlarning shakllanishi, yozuv tizimlari almashinuvi va psixolingvistik omillar muhokama qilinadi. Natijada, yozuvdagi aralashuv hodisasi til tizimining ichki qonuniyatlari bilan bog'liq murakkab jarayon ekanligi isbotlanadi.

**Kalit so'zlar:** grafemik interferensiya, kirill yozuvi, lotin yozuvi, qo'shma so'zlar, ortografiya, so'z yasash, yozuv me'yorlari, lingvistik tahlil.

**Аннотация.** В данной статье анализируется явление графемной интерференции в узбекском языке, возникающее в результате взаимодействия кириллической и латинской письменных систем. Особое внимание уделяется проблемам слитного и раздельного написания слов, которые рассматриваются с лингвистической точки зрения. Исследование опирается на научные взгляды А. Ходжиева о словообразовании и сложных словах, а также рассматривает формирование орфографических норм, влияние смены письменности и психолингвистические факторы. В результате доказывается, что явление смешения письменностей представляет собой сложный процесс, обусловленный внутренними закономерностями языка.

**Ключевые слова:** графемная интерференция, кириллица, латиница, сложные слова, орфография, словообразование, нормы письма, лингвистический анализ

**Annotation.** This article analyzes the phenomenon of graphemic interference in the Uzbek language, arising from the interaction between Cyrillic and Latin writing systems. Particular attention is paid to inconsistencies in the joint and separate spelling of words, which are examined from a linguistic perspective. The study is based on A. Hojiev's theoretical views on word formation and compound words, and also discusses the formation of orthographic norms, the transition between writing systems, and psycholinguistic factors. The results show that the mixing of writing systems is a complex process determined by the internal structure and laws of the language.

**Keywords:** graphemic interference, Cyrillic script, Latin script, compound words, orthography, word formation, writing norms, linguistic analysis.

Zamonaviy o'zbek tilshunosligida olib borilayotgan islohotlar tilimizning rivoji uchun xizmat qiluvchi omil sanalib, mazkur islohotlar natijasida undagi qator kamchiliklar o'z yechimini topa oldi. Biroq ayrim muammolar borki, ushbu muammolarga nazariy jihatdan yechim berish hali-hanuz tilshunoslik oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ana shunday muammolardan biri bu kirill va

lotin yozuv tizimlarining aralashishi natijasida lotin alifbosi imlosidagi ba'zi so'zlarning (garchi ular kirill alibosida qo'shib yozilsa-da) ajratib yoki aksincha holatlar bilan uzviy ravishda bog'lanadi. Bizning ushbu maqolamiz ham bevosita ushbu holat xususida bo'lib, unda kirill va lotin yozuv tizimlari o'rtasidagi grafemik interferensiya: o'zbek tilida qo'shib yozish hodisasining lingvistik asoslari borasida so'z yuritiladi. Mazkur hodisaning nazariy asoslarini ishlab chiqishda o'zbek tilshunosligidagi so'z yasalishi hamda qo'shma so'z haqidagi olib borilgan tadqiqotlar, jumladan, Azim Hojiyevning "O'zbek tili so'z yasalishi" hamda "O'zbek tilida qo'shma, juft va takroriy so'zlar" o'quv qo'llanmalari metodologik asos vazifasini bajardi.

O'zbek tilida nutqiy muomala jarayonida kirill va lotin alifbolarining faol qo'llanadi, bu esa interferensiya hodisasini yuzaga keltiradi. Interferensiya — bu ikki yoki undan ortiq tizim (til, yozuv, tovush, bilim) o'zaro ta'sirlashganda birining xususiyatlari boshqasiga aralashib, normaning buzilishi yoki o'zgarishiga olib kelishi hodisasi bo'lib, ushbu hodisa o'zbek tilida lotin alifbosi imlosidagi ba'zi so'zlarning (garchi ular kirill alibosida qo'shib yozilsa-da) ajratib yoki aksincha holatlar yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Interferensiyaning mavjud til tizimidagi yuzaga kelish sababini aniqlash uchun o'sha tildagi so'z shakllanishi va yozilishiga doir so'z yasalish hodisasining o'rnini aniqlash lozim.

Avvalo, til tizimida so'z shakllanishi va yozilishidagi muammolarni tushunish uchun so'z yasash hodisasining o'rnini aniqlanishi lozim. Bu borada A. Hojiyev so'z yasashning til tizimidagi murakkab o'rnini quyidagicha izohlaydi: "So'z yasalishi va u bilan bog'liq bo'lgan hodisalarning tilshunoslikdagi o'rnini masalasida hanuz bir fikrga kelingan emas"<sup>2</sup>. Ko'rish mumkinki, so'zning tuzilishi, shakllanishi va yozilishi borasidagi masalalar hali-hanuz bahsli bo'lib, bu so'zlarning yozilishi bilan bog'liq amaliy va nazariy jarayonlarda turli xatoliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Alalxusus, so'z yasalish jarayonining tilshunoslikning morfologiya va leksikologiya bo'limlari integratsiyasi doirasida o'rganish ham yozuv me'yorlariga ham ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. A. Hojiyev bu holatga quyidagicha baho beradi: "So'z yasalishi hodisasi uning asosiy xususiyatlari bilan grammatika va leksikologiyaga yaqin turadi"<sup>3</sup>. Demak, so'zning qanday tuzilganligi uning qanday yozilish usuliga ham ta'sir ko'rsatadi, Aynan shu jihat orqali kirill va lotin yozuv tizimlari o'rtasida aralash yozuv shakllarining paydo bo'lish omili yuzaga kelmoqda. Qo'shma so'zlar imlosi masalasi esa mazkur masalaning asosiy nuqtasi sanaladi, negaki qo'shma so'zlar imlosi o'zbek orfografiyasining shu vaqtgacha to'la hal etilmagan, chalkash masalalaridan biri bo'lib kelayotganligi hammaga ma'lum<sup>4</sup>. Qo'shib yozish yoki ajratib yozish masalasidagi noaniqliklar tarixan mavjud bo'lib, bu holat yozuv tizimidagi almashinuvlar ta'sirida yana kuchaygan.

Kirill va lotin yozuviga asoslangan alifbo tizimlari o'rtasida kuzatilayotgan tafovutlardan biri aynan qo'shma so'zlarning yozilishidagi nomutanosibligi bilan bog'liq. Masalan, *bayramoldi*, *ko'pkurash* kabi birliklar lotin yozuvida qo'shib yozilsa, kirill yozuvida ular *байрам олди*, *кўп кураш* tarzida ajratib yozilishi holatlari mavjud. Bu hodisa yuzaki qaralganda imloviy jihatdan turlichaligi bo'lsa-da, *birinchidan*, uning sababi so'z struktur-semantik tabiati kirill va lotin alifbosida turlicha talqin qilish bilan,

<sup>2</sup> **Ҳожиев А.** Ўзбек тили сўз ясалиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б. 4.

<sup>3</sup> **Ҳожиев А.** Ўзбек тили сўз ясалиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б. 6.

<sup>4</sup> **Ҳожиев А.** Ўзбек тили сўз ясалиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б. 3.

ya'ni qo'shma so'z va sintaktik birikma chegarasining yozuv amaliyotida bir xilda anglanmasligi bilan izohlanadi.

*Ikkinchidan*, ushbu hodisa yozuv tizimlarining tarixiy taraqqiyotidagi rivojlanishlar bilan aloqador. Kirill yozuvida tarixan ko'plab biriklar sintaktik birikma sifatida ajratib yozish an'anasiga ega bo'lsa, lotin yozuvi taraqqiyoti ushbu so'zlarni qo'shma shaklda yozishni taqozo etdi, sababi, so'zlar semantik jihatdan yaxlitlandi, nazariy jihatdan sayqallandi, masalan: *байрам олди* – *bayramoldi*, *кўп кураш* – *ko'pkurash*, *кўл ёзма* – *qo'lyozma*, *темир йўл* – *temiryo'l*, *кўз олди* – *ko'zoldi*, *тез ёрдам* – *tezyordam* kabi misollar fikrimizning yaqqol dalilidir.

1956-yilda qabul qilingan kirill imlo qoidalariga ko'ra, "*Umum Yevropa, Butun Rossiya* kabi ikkinchi komponenti atoqli otdan iborat bo'lgan so'zlar ajratib yoziladi"<sup>5</sup>. Ammo hozirgi o'zbek yozuvidagi bu kabi birliklar qo'shib yoziladi: *umumyevropa*, *butunrossiya* kabi. Bu kabi xilma-xillik sababini quyidagicha izohlash mumkin:

1. **Grammatik maqomning o'zgarishi**, ya'ni 1956-yilgi kirill imlo qoidalarda "**umum**", "**butun**", **yalpi**" kab'i so'zlar mustaqil ma'noga ega bo'lgan aniqlovchilar sifatida ko'rilgan. Shuning uchun ular atoqli otlardan ajratib yozilgan. Hozirgi tilshunoslikda esa bu birliklar (aynan umum- birligi) **prefiksoidlar** (old qo'shimcha vazifasini bajaruvchi so'z) sifatida talqin qilinadi. Ular o'zi birikkan so'z bilan yaxlit bir tushunchani — yangi bir sifatni hosil qiladi. Masalan, *umumyevropa*<sup>6</sup> deganda "Yevropaga oid bo'lgan umumiy narsa" emas, balki yaxlit bir hududiy-siyosiy qamrov anglashiladi.

2. **Leksikalizatsiya jarayoni** – hozirgi o'zbek lotin yozuvida leksikalizatsiya jarayoniga alohida urg'u beriladi. Agar ikki komponent birikib, tildagi bitta terminologik birlikni yoki tushunchani ifodalasa, ular qo'shib yozilishi shart.

3. **O'zbek tili modeliga asoslanish, rus modelidan uzoqlashish** – 1956-yilgi imlo qoidalari ko'p jihatdan rus tili imlosi ta'sirida shakllangan edi. Rus tilida ham bu kabi birliklar (masalan, *общеевропейский*) qo'shib yozilsa-da, o'sha davrdagi o'zbek imlosida ularni ajratib yozish orqali atoqli otning bosh harf bilan yozilishini saqlab qolishga harakat qilingan. Hozirgi kunda esa o'zbek tilining o'z ichki qonuniyatlaridan kelib chiqib, qo'shma so'z yasash imkoniyatlaridan kengroq foydalanilmoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, kirill va lotin alifbosidagi ayrim, jumladan, qo'shma so'zlarning yozilishidagi turfa xillilik tildagi mavjud nazariy qoidalarga xilma-xil qarashlar asosida shakllangan. Chunonchi, kirill alifbosida birikma sifatida qaralgan ayrim so'zlar lotin tilida qo'shma so'z sifatida qabul qilindi, bu esa har ikki tilga xos interferensial farqlarning yaqqol dalilidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari (lotin yozuviga asoslangan). – Toshkent, 1995.
2. Ўзбек орфографияси қоидалари. – Тошкент, 1956.
3. Ўзбек тили грамматикаси. I жилд. Морфология. – Тошкент: Фан, 1975. – 600 б.
4. Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясаши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – 109 б.

<sup>5</sup> Ўзбек орфографияси қоидалари. – Тошкент, 1956.

<sup>6</sup> O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari (lotin yozuviga asoslangan). – Toshkent, 1995.

5. Хожиев А. Ўзбек тилида қўшма, жуфт ва такрорий сўзлар. – Тошкент: Ўқитувчи, (йил кўрсатилмаган). – 144 б.